MUNIS XORAZMIY SHE'RIYATIDA TASHXIS SAN'ATINING POETIK XUSUSIYATLARI

Sadullayeva Darmonjon
Urganch davlat universiteti magistri
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23065066

Annotatsiya. Mazkur maqolada Munis Xorazmiy she'riyatida tashxis san'atining qo'llanish xususiyatlari va poetik vazifalari tahlil qilinadi. Shoirning binafsha, g'uncha, xasta ko'ngil, ko'z, qosh va mujgon obrazlarini yaratishdagi tashxis usuliga e'tibor qaratiladi. Tahlil jarayonida tabiat va inson a'zolariga insoniy xususiyat, harakat hamda ruhiy holatlarning yuklanishi orqali yuzaga keladigan badiiy mazmun ochib beriladi. Shuningdek, tashxisning yor husnini bilvosita ifodalash, oshiqning ruhiy kechinmalarini tasvirlash hamda ishqiy holatning ta'sirchanligini kuchaytirishdagi o'rni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Munis, she'riyat, tashxis, gul, g'uncha, ko'z, mujgon.

Аннотация. В статье анализируются особенности употребления ташхис и его поэтические функции в поэзии Муниса Хорезми. Особое внимание уделяется образам фиалки, бутона, больного сердца, глаз, бровей и ресниц, созданным посредством этого художественного приёма. В ходе анализа раскрывается художественное содержание, возникающее благодаря наделению природных объектов и частей человеческого тела свойствами, действиями и эмоциональными состояниями человека. Также рассматривается роль ташхис в косвенном выражении красоты возлюбленной, передаче душевных переживаний влюблённого и усилении выразительности любовной лирики Муниса.

Ключевые слова: Мунис, поэзия, ташхис, цветок, бутон, глаза, ресницы.

Annotation. This article analyzes the specific features and poetic functions of tashkhis in the poetry of Munis Khorezmi. Particular attention is paid to the images of the violet, bud, suffering heart, eyes, eyebrows, and eyelashes created through this literary device. The analysis reveals the artistic meaning produced by attributing human characteristics, actions, and emotional states to natural objects and parts of the human body. The article also examines the role of tashkhis in indirectly expressing the beauty of the beloved, conveying the lover's emotional experiences, and strengthening the expressiveness of Munis's love poetry.

Keywords: Munis, poetry, tashkhis, flower, bud, eyes, eyelashes.

Mumtoz o'zbek she'riyatida badiiy san'atlar shoirning fikr va kechinmalarini obrazli ifodalash, tasvirni jonlantirish hamda poetik mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ana shunday san'atlardan biri tashxis bo'lib, unda jonsiz narsa, tabiat hodisasi, o'simlik yoki inson a'zolariga insonga xos xususiyat, harakat va ruhiy holatlar yuklanadi. "Hayvonlar, qushlar, jonsiz va mavhumiy narsalarni shu xilda

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

tasvirlash vositasida she'riy asar muallifi ilgari surayotgan muayyan g'oyalar aniqroq ifodalanadi, tasvirlanayotgan lirik yoki epic timsollar yorqinlik, jonlilik, jozibadorlik kasb etadi."[1]

Munis Xorazmiy she'riyatida tashxisning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Shoir binafsha va g'uncha kabi o'simlik obrazlariga xijolat, uyat, diltanglik singari insoniy kechinmalarni yuklaydi. G'unchaning yor labini ko'rib diltang bo'lishi, yor og'zidan uyalib boshini egishi yoki ochiq chehrani ko'rib xijolatga tushishi orqali tabiat obrazi yor husnini anglash va unga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lgan obraz sifatida gavdalanadi.

Mumtoz she'riyatda gul obrazi faol qo'llaniladigan obrazlardan biridir. Bu obraz orqali shoirlar, asosan, yorning go'zalligini ta'riflash, uning go'zalligi oldida gullarning xijolat tortishi yoki so'lib qolishi kabi poetik mazmunlar aks etadi. Munis Xorazmiy she'riyatida ham gul obrazi bilan bog'liq misollar uchraydi:

Binafsha rang mengin ko'rgach infiolidin,
Binafsha tutdi vatan dashtu ko'hsor ichra.[2]

Ushbu baytda binafsha obrazi tashxis san'ati asosida jonlantirilgan. Shoir binafshaning rangini lirik subyekt rangi bilan qiyosiy munosabatga kiritib, unga insoniy idrok va ruhiy kechinma – xijolat holatini yuklaydi. "Infiol" va "vatan tutmoq" birliklari orqali binafsha go'yo lirik qahramon rangini ko'rib, undan uyalgan va dasht-u ko'hsorni o'ziga makon qilgan inson sifatida tasvirlanadi. Natijada tabiat hodisasi inson ruhiyatiga xos kechinma bilan uyg'unlashib, rang tasviri psixologik mazmun kasb etadi.

Munis she'riyatida tabiat hodisalari va o'simlik obrazlarini insoniy kechinmalar bilan bog'lash lirik tasvirning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biridir. Shoir g'uncha obraziga murojaat qilar ekan, uning tabiiy xususiyatlarini inson ruhiyatiga xos holatlar bilan izohlaydi. Natijada g'uncha oddiy tabiat unsuri emas, balki lirik qahramonning go'zalligini idrok etuvchi va unga munosabat bildiruvchi poetik obraz sifatida namoyon bo'ladi:

Tabassumda ko'rub rangin labingni nogihon g'uncha,
Qilib diltanglik zohir ichidin bo'ldi qon g'uncha.[3]

Baytda g'unchaning lirik qahramonning "rangin labi"ni ko'rishi bilan bog'liq ruhiy holati tasvirlangan. "Ko'rub" fe'li orqali unga insoniy idrok xususiyati berilsa, "diltanglik" g'unchaning ruhiy kechinmasini ifodalaydi. Uning tabiiy qizil rangi ham shoir tasavvurida uning ichki holati bilan bog'lanib, "ichidin bo'ldi qon" tarzida talqin qilinadi. Shu tariqa tashqi belgi va ichki kechinma o'rtasida badiiy aloqa yuzaga keladi. G'unchaning rangini lirik qahramon labining rangiga munosabat orqali ochish esa yor husnini bilvosita ta'kidlashga xizmat qiladi.

Keyingi baytda ushbu poetik usul yanada rivojlantiriladi:

Sabo tahrikidin yo'q, balki og'zing sharmidin boshin
Quyi solmoqqa moyil bo'lg'usidir har zamon g'uncha.[4]

---

[1] Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.:Sharq, 1998. –B.39

[2] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.38

[3] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.44

[4] Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.44

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Shoir g‘unchaning boshini quyi solib turishini tabiatdagi shamol harakati bilan emas, balki yor og‘zidan uyalishi bilan izohlaydi. “Sharm” tushunchasining g‘unchaga ko‘chirilishi tashxis san’atining asosiy belgilaridan biridir. Bunda g‘uncha nafaqat tashqi ta’sirni sezuvchi, balki muayyan vaziyatni anglab, undan xijolat tortuvchi mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. “Boshin quyi solmoq” esa mazkur ruhiy holatning tashqi ifodasiga aylanadi. Demak, shoir g‘unchaning tabiiy holatini insoniy psixologiya asosida qayta talqin qiladi.

Uchinchi baytda bu tasvir yanada murakkablashadi:

Ochiq chehrangni to ko‘rdi dema, ey gul, ochilmishdur,
Xijolat g‘oyatidin aylamish kulgu ayon g‘uncha.[5]

Bu yerda g‘unchaning ochilishi ham tabiiy jarayon sifatida emas, lirik qahramonning ochiq chehrasini ko‘rish natijasida yuzaga kelgan xijolat bilan bog‘lanadi. “Xijolat” insonning ruhiy holati bo‘lib, uning g‘unchaga nisbat berilishi tashxisni yanada kuchaytiradi. Uchala baytda tashxis bir martalik badiiy usul sifatida emas, g‘uncha obrazini yaratishning izchil poetik tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Dastlab g‘uncha yorning labini ko‘rib diltanglashadi, keyin uning og‘zidan uyalib boshini egadi, nihoyat ochiq chehrasini ko‘rib xijolatga tushadi. Shuningdek, tashxis bu yerda faqat tabiatni jonlantirish vazifasini bajarmaydi. G‘unchaning yor husniga bergan munosabati orqali lirik qahramonning go‘zalligi bilvosita ulug‘lanadi. Shoir yorning lab, og‘iz va chehra go‘zalligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tavsiflash o‘rniga, g‘unchaning undan ta’sirlanishi, uyalishi va xijolatga tushishi orqali tasvirlaydi. Natijada tashxis san’ati ham g‘uncha obrazini jonlantirish, ham yor husnini poetik jihatdan kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Ot surarda demangiz, tuz qo‘zg‘alib qolmish keyin,
Xasta ko‘nglumdur borur aftonu xezon keynida.[6]

Baytda oshiqning yor ortidan kechayotgan ruhiy holati tashxis san’ati orqali ifodalangan. Shoir ot ketidan ko‘tarilgan chang-to‘zonni oddiy hodisa sifatida emas, balki oshiqning “xasta ko‘ngli” bilan bog‘laydi. “Tuz qo‘zg‘alib qolmish” degan tasavvur keyingi misrada o‘zgarib, bu chang-to‘zon aslida iztirob chekayotgan ko‘ngilning holati sifatida talqin qilinadi. “Xasta ko‘ngil”ga insoniy xususiyatlar berilib, u mustaqil harakat qiluvchi obrazga aylantirilgan. “Borur” fe’li esa ko‘ngilni jonlantirib, uning ot ortidan “afton-u xezon” holida ketayotganini tasvirlaydi. Bu orqali oshiqning ayriliqdan qiynalayotgan ruhiy kechinmasi yanada ta’sirchan ifodalangan. Baytda tashqi va ichki holat bir-biriga uyg‘unlashadi: otning ketishi – yorning uzoqlashishi, chang-to‘zon – oshiq ko‘nglining bezovtaligi, “afton-u xezon” esa ayriliq iztirobinining ifodasidir. Demak, tashxis bu yerda shunchaki badiiy bezak emas, balki ko‘zga ko‘rinmaydigan ruhiy kechinmani “xasta ko‘ngil” obrazi orqali jonli va aniq tasvirlash vositasidir.

Janobing qullig‘i tun-u kun ishimdur,
Separ ko‘z suv, mijam gar ursa jorub. [7]

Baytda oshiqning yor xizmatiga bo‘lgan sadoqati tashxis san’ati orqali obrazli ifodalangan. “Ko‘z”ga insoniy faoliyat – “suv sepish” xususiyati berilib, u go‘yo yor xizmatini bajaruvchi mavjudot

[5] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.44

[6] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.54

[7] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.58

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

sifatida gavdalanadi. Ikkinchi misradagi “mijam gar ursa jorub” ifodasi ham mazkur tasvirni davom ettiradi. Kiprik supurgiga qiyoslanib, ko‘zdan chiqqan suvni go‘yo supurib turuvchi vosita sifatida tasavvur qilinadi. Natijada ko‘z va kiprikning harakati oshiqning “qullik” holatiga bo‘ysundiriladi. Shu tariqa shoir oshiqning butun vujudi bilan yor xizmatida ekanini ta’kidlaydi.Mazkur baytda tashxis va tashbeh uyg‘unlashib, ko‘z yoshining oddiy fiziologik holatini lirik qahramon ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi. Tashxisning asosiy poetik vazifasi esa oshiqning cheksiz sadoqati va qullik darajasidagi ixlosini ta’sirchan ifodalashdan iborat.

Erurlar chashmi fattoning ajab xunxorakim har dam,
Icharlar notavonlar qonini gulgun sharob aylab. [8]

Baytda yorning “chashmi fatton” – maftun etuvchi nigohi tashxis san’ati asosida faol obrazga aylantirilgan. Shoir ko‘zga insoniy xususiyatdan ko‘ra, inson va yirtqichga xos ongli harakat – “xunxorlik” va “qon ichish”ni nisbat beradi. “Xunxor” so‘zi nigohning oshiqqa yetkazadigan ruhiy ta’sirini keskinlashtirib, uni go‘yo qon bilan oziqlanuvchi mavjudot sifatida gavdalantiradi.

Ikkinchi misrada tashxis yanada rivojlanadi: “icharlar” fe’li ko‘zlarni faol harakat qiluvchi subyekt sifatida ko‘rsatadi. Yorning nigohi oshiqning jonini oluvchi kuch sifatida tasavvur qilinar ekan, uning “qoni” ham go‘yo shu nigoh ichadigan sharobga aylanadi. Baytning poetik markazida yor nigohining faol kuch sifatida talqin qilinishi turadi. Shoir ko‘zning shunchaki chiroyini ta’riflamaydi, balki unga harakat, tajovuzkorlik va “xunxorlik” xususiyatlarini berib, nigohning oshiq ruhiyatiga ta’sirini obrazlashtiradi. Natijada oddiy ko‘z obrazi oshig‘ini maftun etuvchi va uning ruhiy holatini izdan chiqaruvchi kuch darajasiga ko‘tariladi. Tashxisning badiiy vazifasi ham aynan shu – yor nigohining ta’sir kuchini konkret va ta’sirchan obraz orqali namoyon etishdan iborat.

O‘ltururlar meni har dam ko‘zu qoshing taloshib,
Tirguzurlar ikki jonbaxsh dudog‘i yaroshib.
Ko‘zi mujgonlarikim, qasdima saf turmishlar,
Qon to‘shar qatlim uza bir-birini so‘roshib.[9]

Mazkur baytlarda oshiqning yor husni qarshisidagi ojizligi tashxis san’ati asosida obrazlashtirilgan. Birinchi baytda yorning ko‘zi va qoshi mustaqil harakat qiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi: ular go‘yo oshiqni o‘ldirish uchun o‘zaro “talashadilar”. “O‘ltururlar” fe’li ko‘z va qoshga insoniy iroda hamda harakat yuklaydi. Shu bilan birga, keyingi misrada “ikki jonbaxsh dudog‘”ning yarashib, oshiqni yana tiriltirishi qarama-qarshi poetik holatni yuzaga keltiradi. Natijada yorning turli a’zolari oshiq hayot-mamotiga ta’sir ko‘rsatuvchi mustaqil kuchlar sifatida gavdalanadi.

Ikkinchi baytda tashxis yanada harakatchan tus oladi. Mujgonlar – kipriklar go‘yo oshiqqa qarshi saf tortgan lashkarga o‘xshatiladi. “Saf turmoq”, “qasd qilmoq”, “bir-birini so‘roshmoq” kabi harakatlar mujgonlarga ongli faoliyat yuklaydi. Ayniqsa, “bir-birini so‘roshib” birikmasi ularni o‘zaro muloqot qiluvchi insonlar sifatida tasavvur qilishga imkon beradi. “Qon to‘shamoq” esa oshiqning qatli haqidagi mubolag‘aviy tasvirni kuchaytiradi. Shunday qilib, baytlarda tashxis ko‘z, qosh va ga insonlarga xos xususiyatlarni ko‘chirish orqali yuzaga kelib, ular go‘yo o‘zaro raqobat qiluvchi va oshiqning hayot-mamotini belgilovchi faol kuchlarga aylantiriladi.

---

[8] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.82

[9] Shermuhammad Munis. Saylanma. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1980. –B.86

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Munis Xorazmiy she'riyatidagi misollar tashxis san'atining shoir poetik tafakkurida faol qo'llanganini ko'rsatadi. Tashxis orqali shoir tabiat va o'simlik obrazlarini insoniy kechinmalar bilan bog'laydi, inson a'zolarini esa mustaqil harakat qiluvchi obrazlar darajasiga olib chiqadi. Binafsha va g'uncha obrazlaridagi xijolat, uyat va diltanglik kabi holatlar yor husnini bilvosita ochishga xizmat qilsa, "xasta ko'ngil" tasviri oshiqning ayriliqdagi iztirobini jonli harakat bilan ifodalaydi.

Tashxis Munis lirikasida ko'pincha boshqa tasviriy vositalar bilan birga namoyon bo'ladi. Yorning ko'zi, qoshi va mujgonlari bilan bog'liq tasvirlarda esa tashxis yanada harakatchan tus oladi. Ko'z va qoshning "talashishi", mujgonlarning "saf tortishi" va "bir-birini so'roshishi" kabi holatlar yor a'zolarini go'yo ongli harakat qiluvchi kuchlar sifatida gavdalantiradi. Shu orqali oshiqning yor husni qarshisidagi ojizligi, uning hayot-mamot holati va ishqiy iztirobi kuchliroq ifodalanadi.

Demak, Munis she'riyatida tashxis oddiy jonlantirish vositasi bo'lib qolmay, obrazning mazmuniy imkoniyatlarini kengaytiruvchi poetik usul sifatida namoyon bo'ladi. Shoir ushbu san'at orqali yor go'zalligini, oshiqning ruhiy holatini va ishqiy munosabatning keskinligini bilvosita hamda ta'sirchan tarzda ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
2. Shermuhammad Munis. Saylanma. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1980.
3. Shermuhammad Munis. O'zbek mumtoz she'riyati antologiyasi. 31-tom. Toshkent: O'zbekiston, 2022.
4. Jumayev N. Munis g'azaliyoti (Badiiy mahorat masalalari). –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.